O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANDLIK VA MEHNAT MUNOSABATLARI VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORTNI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENT TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGINING
QARORI

Xalq ta’limi, madaniyat, sport va Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ta’lim muassasalarining pedagog va rahbar xodimlarining bazaviy tarif stavkalari hamda tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limlari xodimlarining lavozim maoshlari miqdorlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ish haqi miqdorini oshirish to‘g‘risida” 2022-yil 20-maydagi PF–138-son va “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 11-maydagi PF–134-son Farmonlari ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Madaniyat vazirligi, Sportni rivojlantirish vazirligi hamda Prezident ta’lim muassasalari agentligi **qaror qiladi**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ish haqi miqdorini oshirish to‘g‘risida” 2022-yil 20-maydagi PF–138-son va “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 11-maydagi PF–134-son Farmonlariga muvofiq 2022-yil 1-iyun va 1-sentabrdan boshlab budjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarining ish haqi miqdorlarini oshirilishi munosabati bilan xalq ta’limi, madaniyat va sport hamda Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlarining bazaviy tarif stavkalari miqdorlari O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Madaniyat vazirligi, Sportni rivojlantirish vazirligi hamda Prezident ta’lim muassasalari agentligi tomonidan qayta ishlab chiqilganligi inobatga olinsin.

2. Quyidagilar:

Xalq ta’limi, madaniyat va sport hamda Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ta’lim muassasalarining pedagog xodimlari mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari 1-ilovaga muvofiq;

Xalq ta’limi, madaniyat va sport hamda Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ta’lim muassasalarining rahbar xodimlari mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

Tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limlari xodimlarining lavozim maoshlari miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Madaniyat vazirligi, Sportni rivojlantirish vazirligi hamda Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ta’lim mussasalari rahbarlari, Toshkent shahar va viloyatlar xalq ta’limi, madaniyat, sportni rivojlantirish boshqarmalari boshliqlari, vazirliklar tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlariga:

xalq ta'limi, madaniyat va sport hamda Prezident ta'lim muassasalari rahbar va pedagog xodimlarining ish haqlarini ilovadagi bazaviy tarif stavkalar bo'yicha o'z vaqtida qayta hisob-kitob qilish;

xalq ta'limi, madaniyat va sport hamda Prezident ta'lim muassasalari rahbar va pedagog xodimlarining mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari o'zgarishi munosabati bilan qo'shimcha talab etiladigan mablag'larni ajratish yuzasidan tegishli moliya organlari bilan ish olib borish vazifalari topshirilsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligining hamda Prezident ta'lim muassasalari agentligining 2021-yil 30-avgustdagi 5, 34-2021/QQ, 01-10-24, 126/1-2021 va 90-son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri o'rinbosari T. Komilov, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining birinchi o'rinbosari E. Muxitdinov, Madaniyat vaziri o'rinbosari U. Qo'qonboyev, Sportni rivojlantirish vaziri o'rinbosari M. Ismoilov, Prezident ta'lim muassasalari agentligi direktori o'rinbosari B.Taxirov zimmasiga yuklansin.

6. Mazkur qaror 2022-yil 1-iyundan boshlab kuchga kiradi.

Xalq ta'limi vaziri **B. Saidov**
Toshkent sh.,
2022-yil 31 - may,
21 K/K -son

Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri **N. Xusanov**
Toshkent sh.,
2022-yil 31 - May,
46-2022 Q/Q -son

Madaniyat vaziri **O. Nazarbekov**
Toshkent sh.,
2022-yil 31 - May,
01-08-10 -son

Sportni rivojlantirish vaziri **A. Ikramov**
Toshkent sh.,
2022-yil 31 - may,
64-KK -son

Prezident ta'lim muassasalari agentligi direktori **X. Umarova**
Toshkent sh.,
2022-yil 31 - May,
59 -son

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Madaniyat vazirligi, Sportni rivojlantirish vazirligi hamda Prezident ta'lim muassasalari agentligining 2022-yil 31-maydagi 21 к/к, 46-2022 Q/Q, 01-08-10, 6/1 кк va 59-son qaroriga 1-ILOVA

Xalq ta'limi muassasalari pedagog xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari

so'm

Lavozimlar nomi	Tarif stavkalari miqdorlari:				
	oliy malaka toifali	birinchi malaka toifali	ikkinchi malaka toifali	oliy ma'lumotli	o'rta maxsus ma'lumotli
1. Umumta'lim muassasalarining boshlang'ich va yuqori sinflari o'qituvchisi, o'qituvchi-logopedi, logopediya shoxobchasi mudiri, o'qituvchi-defektolog, inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan va tayanch korreksion sinflar ochilgan umumta'lim maktablarining maxsus pedagogi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari qoshidagi metodika kabinetlari, davlat ta'lim standartlari monitoringi bo'limlari hamda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazlari xodimlari, tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlarining metodik ta'minlash, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish va davlat ta'lim standartlari monitoringi guruhlari xodimlari	3 550 412	3 212 842	2 883 271	2 575 372	2 407 368
1.1. Yoshlar yetakchisi, ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi	2 575 372				
2. Respublika muassasa va tashkilotlari metodistlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari metodistlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari qoshidagi metodika kabinetlari, davlat ta'lim standartlari monitoringi bo'limlari hamda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazlari metodistlari, tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari metodistlari	3 550 412				
3. Maktabdan tashqari muassasaning o'qituvchi-treneri, oliy sport mahorati maktablari, sport turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan olimpia zaxiralari bolalar-o'smirlar sport maktablarining, bolalar-o'smirlar sport maktablarining instruktor-metodistlari, sport psixologi	2 608 782	2 436 944	2 280 759	2 125 544	1 975 771
4. Bolalar musiqa va san'at maktabi o'qituvchisi	2 707 724	2 534 172	2 361 720	2 195 310	2 035 514
5. Bolalar musiqa va san'at maktabi konsertmeysteri	2 361 720	2 195 310	2 035 514	1 882 156	1 737 961
6. Xalq ta'limi barcha tipdagi muassasalarining tarbiyachisi, katta tarbiyachisi (tarbiyachi-metodist)	3 550 412	3 212 842	2 883 271	2 575 372	1 805 524
6.1. Umumiy o'rta tipdagi muassasalar psixologlari, «Mehribonlik» uylari va bolalar shaharchalari psixologlari	2 811 927	2 650 596	2 482 122	2 317 836	2 166 631
6.2. Xalq ta'limi barcha tipdagi muassasalarining psixologi (6.1.-bandda ko'rsatilgandan tashqari) va maktabdan tashqari muassasalar instruktor-metodisti	1 574 476	1 463 533	1 357 011	1 254 770	1 158 639
7. Xalq ta'limi barcha muassasalaridagi metodist (3-bandda ko'rsatilgandan tashqari), pedagog-tashkilotchi, to'garaklar, studiyalar, seksiyalar	1 385 516	1 274 592	1 168 088	1 066 453	969 804

Lavozimlar nomi	Tarif stavkalari miqdorlari:				
	oliy malaka toifali	birinchi malaka toifali	ikkinchi malaka toifali	oliy ma'lumotli	o'rta maxsus ma'lumotli
rahbarlari, barcha ixtisosliklar instruktorlari, katta vojatiy, akkomponiator, musiqa rahbari, ekskursovod, madaniyat ishlari bo'yicha tashkilotchi					
8. «Barkamol avlod» bolalar maktablarining to'garak rahbarlari, instruktor-metodistlar va metodistlar, «Mehribonlik» uylari va bolalar shaharchalari to'garak va musiqa rahbarlari, mehnat va trener yo'riqchisi	2 390 017	2 198 676	2 014 955	1 839 631	1 672 910
9. Kutubxona mudiri	x	x	x	1 542 019	1 413 291
				1 850 423*	1 695 949*
10. Kutubxonachi	x	x	x	1 290 036	1 225 534
				1 548 043*	1 470 64 *

Maktabdan tashqari muassasalar bo'lim, seksiya, laboratoriya, kabinet mudirining ish haqi miqdori (kontingentdan qat'i nazar) ikkinchi malaka toifali to'garak rahbarining ish haqiga teng miqdorda belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktablar to'garak rahbarlarining bazaviy tarif stavkasi miqdori davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari oliy ma'lumotli o'qituvchisi bazaviy tarif stavkasining 80 foizi miqdorida belgilanadi.

*Mazkur miqdorlar 2022-yil 1-sentabrdan boshlab amal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Madaniyat vazirligi, Sportni rivojlantirish vazirligi hamda Prezident ta’lim muassasalari agentligining 2022-yil 31-maydagi 21 к/к, 46-2022 Q/Q, 01-08-10, 6/1 кк va 59-son qaroriga 2-ILOVA

Xalq ta’limi muassasalari rahbar xodimlari mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari

so‘m

Lavozimlar nomi	Tarif stavkalari miqdorlari			
	I guruh	II guruh	III guruh	IV guruh
1. Rahbar xodimlar:				
1.1. Umumta’lim muassasasi direktori	4 272 555	4 039 011	3 808 995	3 567 281
1.2. «Mehribonlik» uyi direktori	3 808 995	3 567 281	x	x
1.3. Maktabdan tashqari muassasa direktori	1 574 476	1 463 533	1 357 011	x
1.4. «Barkamol avlod» bolalar maktabi direktori	2 440 440	2 268 478	2 103 366	x
1.5. Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi «Mehribonlik» uylari respublika sog‘lomlashtirish oromgohi rahbari	3 428 096	3 210 553	3 210 553	x
1.6. Oliy sport mahorati maktabi, sport turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan olimpia zaxiralari bolalar-o‘smirlar sport maktabi direktori	2 785 135	x	x	x
1.7. Bolalar va o‘smirlar sport maktabi direktori	2 608 782	2 436 944	2 280 759	x
1.8. Bolalar musiqa va san’at maktabi direktori	3 249 267	3 041 006	x	x
2. Rahbarlarning o‘rinbosarlari:				
2.1. Umumta’lim muassasasi direktorining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari, ixtisoslashtirilgan fanlar bo‘yicha o‘rinbosari, ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, sport ishlari bo‘yicha o‘rinbosari	4 039 011	3 808 995	3 567 281	3 331 735
2.2. Umumta’lim muassasalarining Vatanparvarlik ruhida yoshlarni tayyorlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari-Harbiy chaqiriqqacha tayyorgarlik rahbari	2 575 372			
2.3. «Mehribonlik» uyi direktorining o‘rinbosari	3 567 281	3 331 735	x	x
2.4. Maktabdan tashqari muassasa direktorining o‘rinbosarlari (2.9.-banddan tashqari)	1 463 533	1 357 011	1 254 770	x
2.5. «Barkamol avlod» bolalar maktabi direktorining o‘rinbosarlari (2.9.-banddan tashqari)	2 268 478	2 103 366	1 944 896	x
2.6. Oliy sport mahorati maktabi, sport turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari bolalar-o‘smirlar sport maktabi direktorining o‘rinbosari	2 608 782	x	x	x
2.7. Bolalar-o‘smirlar sport maktabi direktorining o‘rinbosari, filial direktorlari	2 436 944	2 280 759	2 125 544	x
2.8. Bolalar musiqa va san’at maktabi direktorining o‘quv-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari	3 041 006	2 834 066	x	x
2.9. Direktorning xo‘jalik ishlari bo‘yicha o‘rinbosari	1 815 521	1 676 229	1 542 019	1 413 291

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Madaniyat vazirligi, Sportni rivojlantirish vazirligi hamda Prezident ta'lim muassasalari agentligining 2022-yil 31-maydagi 21 к/к, 46-2022 Q/Q, 01-08-10, 6/1 кк va 59-son qaroriga 3-ILOVA

Tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari xodimlarining lavozim maoshlari MIQDORLARI

so'm

T/r	Lavozimlar nomi	Bazaviy tarif stavkalari miqdori				
		Shaharlar-viloyatlar markazlari, Nukus shahri va qishloq tumanlari		Shahar tumanlari		Viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar
		I guruh	II guruh	I guruh	II guruh	
1.	Bo'lim mudirlari	3 154 208	2 966 019	2 966 019	2 780 730	2 966 019
2.	Mudir o'rinbosari-guruh rahbari	2 423 747	2 250 580	2 423 747	2 250 580	2 250 580
3.	Sho'ba mudiri	2 423 747	2 250 580	2 423 747	2 250 580	2 250 580
4.	Ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va ma'naviy-axloqiy tarbiya va bolalarning ijtimoiy himoyasi bosh mutaxassislari	2 302 561	2 138 058	2 302 561	2 138 058	2 138 058
5.	Kadrlar bo'yicha mutaxassis, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash bo'yicha mutaxassis	1 500 390	1 385 282	1 500 390	1 385 282	1 385 282